



PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 8, Issue 1



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities





«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

“PEDAGOG” RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-YANVAR, 2025-YIL
8-TOM 1-SON

O‘ZBEKISTON
2025

Ushbu to‘plamda “Pedagog” respublika ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o‘rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug‘bek Qurbanovich

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***Mas’ul muharrir:**

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li

*Farg‘ona davlat universiteti***Texnik xodim:**

Sultonov Sardorbek No‘monjon o‘g‘li

Turan international university

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***Shamsiyeva Maxsuzaxon Xuja qizi***Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***Sabirova Gulnoza Sadikovna***Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***Saidov Ixtiyor Muzropovich***Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i***Mamatova Nodira Muxtarovna***Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)***Rasulova Vasila Batirovna***Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent***Nikadambayeva Hilola Batirovna***Uzbekiston jurnalistikva ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,**Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***Pirimov Akram Pirimovich***Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent***Shodihev Furqat Davranovich***Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari**nomzodi, Dotsent***Qurbanova Muqaddas Omonovna***Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***Baltayeva Ikbol Tadjibayevna***O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.***Sayfullayeva Ra’noxon Raupovna***O‘zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.***Popova Tatyana Igorevna***SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya. Doctor filologicheskix nauk, professor.***Berdaliev Abduvali**

Tojikiston. Xo`jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Manzuraxon Ernazarova

Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Uluqov Nosirxon Muxammadalievich

Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljamon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov

Farg`ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Jo`rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No'monovich

Farg`ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.

O`rinboyev No'monjon O'rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOJO`

Qurbanova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O`zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg`ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg`ona davlat universiteti.

G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg`ona davlat universiteti.

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Muxitdinova Muniraxon

Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)

Rabbonayeva Dildora Tolipovna

Samarqand viloyati Pedagogika markazi katta o'qituvchisi. Xalq ta'limi a'lchisi,

Xalq ta'limi fidoyisi ko'krak nishonlari sohibasi.

	<i>MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	
38.	Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi <i>MIRZO ULUG'BEK HAYOTI VA ILMIY-MA'RIFIY MEROSINI O'RGANISH</i>	183
39.	Munisa Ziyodullayeva Khusniddinova Zarina Dilshodbekovna Abdullayeva <i>INFLUENCE OF FLUENCY AND ACCURACY IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING</i>	191
40.	Feruzabonu Raximova, Omila Odilovna Yuldasheva <i>MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE</i>	195
41.	Payzullayeva Oltinoy Madiyor qizi <i>O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAN FOYDALANIB, MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARDA TASAVVUR VA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH</i>	199
42.	Xurshid Boyxurozov <i>O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLİYATINI OPTİMİZASIYALASHTIRISH: MUAMMO VA YECHİMLAR</i>	203
43.	Xodjayeva Munisa Utkir qizi <i>YANGI O'ZBEKİSTONDA TA'LIM TİZİMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA YANGILIKLAR</i>	211
44.	Raximova Saboxat Raxmonqulovna <i>MAKTABDA MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	214
45.	Azimova Qudratoy Isomovna <i>HAMSHIRALARНИN KASBIY BILIM VA KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>	216
46.	Nigora Azizovna Egamberdiyeva Shoxzoda Madiyarova <i>AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA OLIB BORILADIGAN KORREKSION METODLAR VA TERAPIYALAR</i>	220
47.	Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi Akbarova Rayhona Jamoliddin qizi <i>TASVIRIY SAN'AT DARSALARIDA AKVAREL BO'YOG'IDAN FOYDALANISH TEXNIKASI VA UNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI</i>	227
48.	Aliyeva Baxtiyaxon Karimovna <i>MENEJMENT SAN'ATI: TASHKILOTNI SAMARADORLIKKA OLIB BORUVCHI INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>	232
49.	Ergasheva Yulduzoy Olimovna Ergashova Farog'at Olimovna <i>TO'G'RI OVQATLANISHNING INSON ORGANIZMI UCHUN AHAMIYATI</i>	235
50.	Aliyeva Baxtiyaxon Karimovna <i>SAMARALI MENEJMENT: TAMOYILLAR, STRATEGIYALAR VA TA'SIR</i>	242

**AUTIZM SINDROMLI BOLALARDА OLIB BORILADIGAN KORREKSION
METODLAR VA TERAPIYALAR**

Nigora Azizovna Egamberdiyeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Shoxzoda Madiyarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika(logopediya) yo'nalishi 23/5-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada autizm sindromli bolalarning o'ziga xos hususiyatlari, rivojlanishidagi kamchiliklari va davolashdagi terapiyalar va metodlar haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: terapiya, ruhiy rivojlanish, autizm, simptom, sindrom, autist.

Аннотация: в данной статье подробно освещены характерные особенности детей с синдромом аутизма, недостатки в их развитии, а также методы терапии и лечения, применяемые при работе с такими детьми.

Abstract: this article provides a detailed examination of the characteristic features of children with autism syndrome, their developmental deficiencies, as well as the therapeutic and treatment methods employed when working with such children.

Ключевые слова: терапия, аутизм, симптом, синдром, аутист, духовное развитие.

Keywords: therapy, autism, symptom, syndrome, autistic, spiritual, development.

Mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ustuvor siyosatlardan biri bu har bir yosh avlodni yetuk aqliy salohiyatlari, jismonan sog'lom, ma'naviyati yetuk, har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Hukumatimizning bir qator qonun va qarorlarida jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatish, sog'lom tengdoshlari qatoridan o'rinn egallab, o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'rsata olishga, ma'nani yetuk inson bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi "Bola huquqlarini kafolatlash to'g'risida"gi

Qonuni va boshqa bir qator qonun va qarorlar alohida ta’lim ehtiyojli bolalar ham o’zining sog’lom tengdoshlari kabi ta’lim-tarbiya olish huquqiga ega ekanligini belgilaydi.

Muhokama va natijalar: Bugungi kunda insoniyatning hayoti rivojlangani, yaxshilangani sayin bu jarayondagi turli xil salbiy oqibatlar ham ko’zga tashlanmay qolmaydi. Xususan, atrof-muhit ifloslangani sayin turli xildagi kasalliklarning ortishi, ayniqsa, “XX-asr vabosi” nomini olgan autizm sindromining ko’payib borishiga alohida to’xtalib o’tishimiz joiz.

Autizm (grekcha “autos”-“o’zim” degan) so’zdan olingan bo’lib-bu ruhiyatning o’ziga xos holati hisoblanadi, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqotda bo’lishni xohlamaydi. U yolg’izlikni yoqtiradi. Yana bir xil hatti-harakat va shunday so’zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o’z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o’xshamaydi. Ularning hatti-harakatlari real voqelik bilan bog’liq emas. Ushbu rivojlanishda kamchilikka ega bo’lgan bolalar harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o’rin tutadi. Ushbu sindromning aniq kelib chiqish sabablari hanuzgacha topilmagan. Shuning uchun ham ushbu sindromga chalingan bolalar bilan ishlash murakkab jarayon hisoblanadi. Autizm sindromining dolzarbligi Butunjahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2001-yilda alohida ajratib ko’rsatilib, shu yilning o’zida “Psixik salomatlik yili” deb e’lon qilingan. 2008-yil Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2-aprel xalqaro autizm muammosi to’g’risida axborotlarni tarqatish kuni deb e’lon qilinib, shundan buyon har yili nishonlanib kelinadi. Hozirgi kunda dunyoda 6,5 milliondan ortiq autist mavjud. So’nggi vaqtarda kasallikning o’sishi keskin oshdi. Jahon ma’lumotlariga ko’ra sog’liqni saqlash tashkilotlari 2019-yilda autizmning bir holati 150 nafar bolaga to’g’ri kelayotganini ko’rsatgan. Ma’lumotlar shuni ko’rsatyaptiki ushbu sindrom kundan-kunga ko’payib bormoqda. Shu o’rinda o’z-o’zidan savol tug’iladi, autizm sindromli bolalar bilan qanday ishlar olib boriladi ? Bu sindromning davosi bormi ? Afsuski kasallikning kelib chiqish sababi turli xil bo’lganligi, simptomlar ham bemorlarda turlicha bo’lganligi uchun kasallikning aniq davolash usullari hanuzgacha bir qator olimlar tomonidan o’rganib kelinmoqda. Autizmni tuzatish ishlarini ko’p hollarda autizmli odam uchun erkin va mustaqil hayotga erishishni maqsad qiladi, bu amalda tashqi dunyo bilan yetarli darajada o’zaro ta’sir qilishning iloji boricha ko’proq usullarni o’rganishni anglatadi. Rossiya maxsus pedagogikasida kompleks ta’sirdan, ya’ni tibbiy va psixologik va pedagogik usullarning kombinatsiyasidan foydalanish odatiy holdir.

Autizmni tuzatishga psixologik va pedagogik uslubiy yondashuvlar orasida ikkita guruhni ajratish mumkin.

1) Asosiy metodlar- kundalik hayotda zarur bo’lgan muloqot, ijtimoiy, o’quv, kasbiy, mehnat va boshqa amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirishga imkon beradi. Asosiy metodlardan birini qo’llash ta’limni tashkil qilish uchun zarur shartdir.

2) Yordamchi metodlar- asosiy usullarni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, ammo asosiy metodlar bilan birga foydalanilganida samarali natija beradi. Yordamchi metodlar orasida hippoterapiya, delfinlar bilan suzish, xolding, estetik o’yin va boshqalar muhim o’rin tutadi.

Faqat yordamchi usullardan foydalanish eng ko’p tarqalgan xatolardan biri hisoblanadi. Korreksion ish tizimidagi yana bir xatolardan biri bu bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda asosiy metodlarni noto’g’ri qo’llashdir. Bugungi kunda ushbu sindrom aktual muammolardan biri bo’lganligi uchun ham juda ko’plab olimlar tomonidan o’rganilib kelinmoqda, shu sababdan ham qo’llaniladigan metod va terapiyalar kundan-kunga ko’payib bormoqda. Autizmni tuzatishning bir qancha usullari mavjud. Bularidan eng keng tarqalgani terapiyalar hisoblanadi.

ABA TERAPIYASI (Applied Behavioral Analysis- amaliy xulq-atvorni tahlil qilish) ya’ni amaliy hatti-harakatlarni tahlil qilish. Ushbu yondashuv AQSHda 1970-yillarda ilk bora ishlab chiqilgan bo’lib, hozirgi kundagi eng samarali usullardan biri sifatida qo’llanilib kelinmoqda. ABA terapiyasining maqsadi kerakli hatti-harakatlar darajasini oshirish va o’rganish, ijtimoiy muloqotga halaqit beradigan xavfli yoki muammoli hatti-harakatlar darajasini pasaytirishni o’z ichiga oladi. ABA terapiyasi nutq va muloqot qobiliyatlarini, e’tiborni, xotirani va akademik ko’nikmalarni yaxshilash uchun ishlatiladi. ABA usuli ijobiy mustahkamlash strategiyalariga qaratilgan bo’lib, ushbu strategiya ta’lim-tarbiya olish yoki yangi ko’nikmalarni o’zlashtirishda qiyinchilikka uchrayotgan bolalarga katta yordam beradi. Xususan ABA terapiyasi “xulq-atvorni funktsional baholash” deb nomlangan jarayon orqali bolaning normal faoliyatiga xalaqit beradigan muammoli xatti-harakatlarni tuzatish bilan shug’ullanadi. ABA terapiyasining samarali tomonlarini aytadigan bo’lsak:

- Boshqalar bilan yaxshiroq muloqot qilish;
- O’rganish qobiliyatini oshirish;
- Xatti-harakatlardagi og’ishlarni tuzatish;
- Bolalar uchun normal holatga erishish aqlning rivojlanish darajasining oshishi;

- Kelajak uchun zarur bo’lgan narsalarni o’rganish mustaqil hayot qobiliyatlarini takomillashtirish.

Asosiy g’oya oddiy: agar bolaga harakatlarining oqibatlari yoqsa, u ularni takrorlaydi va agar yoqmasa takrorlamaydi. Shuning uchun mashg’ulotlar davomida har bir muvaffaqiyat mukofotlanadi va muvaffaqiyatsizlik e’tiborga olinmaydi. Autizm spektorida buzilishi bo’lgan bolalar uchun qiyin bo’lgan barcha ko’nikmalar kichik bloklarga bo’linadi. Bola ushbu bloklarning har birini alohida o’rganadi va keyin ularni bitta murakkab harakatga birlashtiradi. Shunday qilib bolalar nutqni tinglashni va idrok etishni o’rganadilar. ABA terapiyasida muammolarini samarali hal qilish mumkin emas. Natijalarga ko’ra Ole Ivar Lovas tomonidan olib borilgan tadqiqotlar quyidagicha: agar bolaga haftasiga 40 soat dars beriladigan bo’lsa, bu usul eng yaxshi natijalarni beradi. Agar u atiga 10 soat sarf qilsa, ABA terapiyasining foydasi minimal bo’ladi va natijalar ota-onalar va o’qituvchilarni hafa qilishi mumkin. Terapiyaning samarasizligi to’g’risida bayonotlar ko’pincha noto’g’ri davolanishning shaxsiy tajribasiga asoslanadi. Ko’pincha sabab bunday hollarda muammolar usulining o’zi emas, balki mutaxasisning past malakasi, tartibsizligi va darslarning qisqaligi ham sabab bo’ladi.

ABA terapiyasining ijobiy va salbiy tomonlari.

Texnikaning afzalliklari:

- Bola kerakli modelga toqat qilishni o’rganadi, bir vaziyatdan ikkinchisiga hatti-harakatlar orqali o’tishi kuchayadi;
- O’rganish ko’p vaqt talab qilsada, birinchi ijobiy natijalar nisbatan tez paydo bo’ladi;
- Tadqiqotlarga ko’ra, ABA terapiyasi bo’yicha o’qitilgan bolalar oddiy maktablarda tengdoshlari bilan teng ravishda o’qishlari mumkin;
- Dastur juda yaxshi. U bolaga ko’p narsa beradi. Xususan bola muhim tushunchalar va ta’riflarni o’rganadi.

Texnikaning kamchiliklari:

- Agar bola begonalardan qo’rqsa, ABA terapiyasi samarasiz bo’ladi;
- Darslardagi tanafuslar yoki darsni qisqartirish natijaga ta’sir qilishi mumkin;
- Ota-onalar ham ishtirok etishlari va mutaxasisning yordami bilan uyda to’g’ri tizimni tashkil qilish muhimdir.
- Autizm spektorida buzilishi bo’lgan bolalar uchun rag’batlantirish ko’pincha zaifdir. Ya’ni bolaga qanday mukofot kerakligini tushunish muhim jarayonlardan biridir.

VBA TERAPIYASI(og'zaki xulq-atvor yondashuvi)-og'zaki va xulq-atvoi yondashuvi. Amaliy xulq-atvorni tahlil qilish va xulq-atvor sohasi olimi B.F.Skinner nazariyasi bilan bog'liq tadqiqotlar asosida qurilgan. VBA terapiyasi bolaning funktsional nutqni o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi. VBA yondashuvi nuqtai nazaridan nutqning ekspressiv tomoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- So'rovni ifoda etish mahorati, bu eng muhim mahorat, chunki u motivatsiya bilan boshlanadi va natijada bola xohlagan narsasini oladi;
- Obektlarni belgilash mahorati: bola ko'rgan, eshitgan, hidlagan, his qilgan narsalarini nomlaydi;
- Taqlid mahorati eshitilgan so'zlarni takrorlash;
- Intraverbal mahorat- bu savollarga javob berish qobiliyati.

PRT Terapiyasi-(Pivotal Response Treatment)-asosiy ko'nikmalar, ya'ni biron bir voqeа-hodisaga nisbatan reaksiyalarni o'rgatish. PRT metodologiyasi ijtimoiy tashabbusni, bir nechta signallarga javob berish qobiliyatini, motivatsiyani, o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu terapiya kelajakda autist bolaning ta'lif malumotlarini idrok etishini osonlashtiradi. PRT terapiyasingning asl maqsadi ASB ga chalingan bolada noo'rin va g'ayritabiiy xatti-harakatlarning o'rnini bosishi mumkin bo'lgan signallarga va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarga javob berish moyivatsiyasini rivojlantirishdir. PRT otonalarga farzandining tabiiy muhitda tabiiy terapiya o'tkazishni taklif qiladi. Ushbu terapiyada asosan o'yin orqali mashg'ulotlar olib boriladi. O'yin vaqtida katta insonlar ijtimoiy xulq atvorni rag'batlantiradi. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki rag'batlantirish ko'p hollarda vaziyat bilan bog'langan bo'ladi. Ushbu terapiya maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatli usullardan biri sifatida qo'llaniladi.

TEACCH Terapiya (Autistic and Related communication Handipagged Children)- autist bolalar va alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitishda yordam beruvchi dastur hisoblanadi. TEACCH bu tashqi olamga alohida e'tibor beradigan ta'lif texnikasidir. Terapiyaning asosiy maqsadi:

1. Bolaning mustaqilligini maksimal darajada oshirish;
2. Bolaning boshqa shaxslar bilan yaxshi munosabat o'rnatishiga yordam berish;
3. Aqliy qobiliatlarni, o'quv qobiliyatni va o'ziga xosligi ya'ni (individual xususiyatlarini) ko'paytirish va rivojlantirishga yordam beradi;
4. Hissiy sohani rivojlantirish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini orttirish.

TEACCH Terapiyasi asosan: sodda bilish jarayonlari ya'ni: nutq, idrok, o'z-o'ziga hizmat qilish, taqlid, mayda qo'l motorikasi, umumiy motorika, ko'z va qo'llarni kordinatsiyasi va ijtioiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan terapiyalardan biridir.

Muammo va takliflar: Autizm sindromini davolashda terapiyalardan farqli ravishda turli xildagi dasturlardan foydalanish ham samarali usul hisoblanadi. Masalan:

1. “Autism screening App - bu dastur bolani sog'lom yoki sindromga chalinganligini aniqlab beradigan dastur ;

2. “Аутизм общение” - autizm sindromli bolalarni muloqot jarayoniga o'rgatuvchi dastur ;

3. “Choose an emotion” – bu dastur bolada bo'layotgan hissiy holatini aniqlab beruvchi dastur bo'lib, bola ekrandagi stikerlarni tanlash orqali o'zidagi hissiy malumot haqida malumot beradi.

4. “Inside day” – bu dastur bolaga kun tartibini tuzib beradi. Umuman olganda autizm sindromigachalingan bolalar kun tartibiga amal qilishni yoqtiradilar . Shuning uchun ham ushbu dastur sindromiga chalingan bolalar bilan ishlashda juda samaralidir.

Ammo bu kabi dasturlarning bizning mamlakatimizda ishlab chiqarilmayotganligi sohadagi muammolardan biridir

Xulosa: Umuman olganda bu terapiya va metodikalarning barchasi bolani rivojlantirishga, ijtimoiy hayotga moslashtirishga va eng muhim ushbu sindromni korreksiya qilishga qaratilgan. Mening fikrimcha birinchi navbatda bolaning qiziqishlari hisobga olgan holda terapiyalarni qo'llash samarali bo'ladiva ijobiy natijalarini beradi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi biz ASB bo'lgan bolaning qiziqishlarini qanday bilamiz? Bu turdag'i bolalarning nutqi yaxshi rivojlanmagan bo'ladiku, ular o'z qobig'iga o'ralib olgan bo'ladiku? Bu kabi savollar tug'ilishi tabiiy. To'g'ri biz yuqorida autizm sindromiga yetarlicha ta'rif berib o'tdik, ammo shuni ham unutmaslik kerakki, har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi, autizm bu ruhiyatning buzilishidir. Biz bolaning ruhiyati bilan ishlasak, birinchi navbatda unga to'g'ri yondashib, kerakli terapiyalardan foydalansak albatta bunday tashxisli bolalarni sog'ayib ketishi shubxasiz. Autizm bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lgani uchun ham juda ko'plab olimlar turli xildagi metod va terapiyalarni ishlab chiqishmoqda. Ammo biz ularning ichidan eng yaxshisi va eng samaralisini qo'llashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Egamberdiyeva Nigora Azizovna, Madiyarova Shoxzoda Orif qizi. Inklyuziv ta'lismuhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari."Talim innovatsiyasi va integratsiyasi" respublika ilmiy jurnali 17.11.2023
2. Egamberdiyeva Nigora Azizovna. Autizm bilan ishlashda korreksion yondashuvlar.
3. Egamberdiyeva Nigora Azizovna. Erta bolalik turlari va tasniflari.
4. О плюсах минусах и эффективности АБА терапии. <https://urgaps.ru>
5. Egamberdiyeva, N. A. (2024). Diagnosing and organizing rehabilitation of children with disabilities on the autism spectrum. European Science Methodical Journal, 2(6), 463-468.
6. Azizovna, E. N. (2024). Alovida ta'lismehitiyojiga ega bolalarni inklyuziv ta'limga qamrab olishning shart-sharoitlari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 12(1), 53-55.
7. Egamberdiyeva, N. A. (2024). Autizm sindromli bolalarning diagnostika jarayonini tashkil etish. Xalq ta'limi, 3(1), 117-120.
8. Тожибоева, Г. Р., & Нисамбекова, С. (2021). Инклюзивное образование в условиях современной образовательной среды. Academic research in educational sciences, 2(4), 1436-1442.
9. Xudayberdiyeva, D., & Abdujalilova, S. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlar rahbarining oldiga qoyilgan vazifa va burchlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 1), 201-204.
10. Abdujalilova, S. A. (2024). Spiritual and moral education of children in the family. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2(11), 70-74.